



“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi

“Republican telecommunications management center of Uzbekistan” government unitary enterprise

**“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi
BUYRUG‘I**

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining ichki hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida

2023-yil 30-apreldan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining yangi tahriri kuchga kirishi munosabati bilan, “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining ichki mehnat tartibi qoidalari va odob-ahloq qoidalarini, shuningdek, odob-ahloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi faoliyatini mazkur kodeksga muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi xodimlarining ichki mehnat tartibi qoidalari (*yangi tahrirda*) 1-ilovaga muvofiq;

2. “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi xodimlarining odob-ahloq qoidalari (*yangi tahrirda*) 2-ilovaga muvofiq;

3. “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom (*yangi tahrirda*) 3-ilovaga muvofiq;

4. “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Kadrlar bo‘limi (B. Babaxadjayev), Yuridik byuro (Z. Alimova) va Normativ hujjatlar va sifat menejmenti bo‘limi (Sh. Inogamov) **bir hafta muddatda** yangi qabul qilingan tartib va qoidalarni “O‘zTTBRM” DUKning barcha xodimlariga tanishtirishni hamda mazkur hujjatlardan bevosita foydalanishlari uchun elektron hujjatlar aylanmasi (edo.iso) ga joylashtirilishini ta’minlasinlar.

6. Axborot tizimlarini rivojlantirish bo‘limi (N. Muxamedov) Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash bo‘limi (B. Abdullayev) bilan

birgalikda “O‘zTTBRM” DUKning rasmiy veb-saytiga ushbu buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlarni joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning qabul qilinishi munosabati bilan, O‘zTTBRM” DUKning 2022-yil 6-iyundagi 150-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Devonxona (R. Asrankulova) ushbu buyruq nusxasini “O‘zTTBRM” DUKning barcha xizmat va bo‘lim boshliqlari hamda tegishli mutaxassislariga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor



U. Shakirov

Toshkent sh.

2023-yil “13” - iyun

126- son